



## Bajarilishi ikki yilga mo'ljallangan amaliy loyihalar mavzusi

### “Yer to'g'risidagi fanlar” yo'nalishi

№	Amaliy loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
	<p>Turli sathlarda suv bug'ining harakatlanishini o'rganish asosida atmosfera daryolarining O'zbekiston hududida shakllanadigan yog'ingarchilikka ta'sirini miqdoriy baholash uchun dasturiy mahsulot yaratish</p>  	<p><b>Tadqiqotning shakli:</b> Turli sathlarda suv bug'ining harakatlanishini o'rganish asosida atmosfera daryolarining O'zbekiston hududida shakllanadigan yog'ingarchilikka ta'sirini miqdoriy baholash uchun dasturiy mahsulot yaratish bo'yicha amaliy loyiha bajariladi.</p> <p><b>Ilmiy-tadqiqot natijalari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- mavjud reanaliz bazalari (ERA5, MERRA-2 va boshqalar) ma'lumotlari asosida O'zbekiston hududidan o'tgan atmosfera daryolarining tarixiy ma'lumotlar bazasi tuziladi;</li> <li>- tarixiy ma'lumotlar tahlili asosida atmosferaning turli sathlarida vertikal bo'yicha integrallangan (keltirilgan) suv bug'i qatlaminin ko'chishi miqdoriy baholanadi;</li> <li>- atmosfera dar'elarining suvdonligi va qayd etilgan yog'ingarchilik miqdori orasidagi bog'liqlik aniqlanadi;</li> <li>- qayd etilgan yog'ingarchilik hodisalarining takrorlanuvchanligi, davomiyligi va jadalligi statistik baholanadi hamda holatlar to'plamidan kuchli yog'ingarchilik hodisalari ajratiladi;</li> <li>- aniqlangan barcha holatlar asosida analog-hodisalar bazasi tuziladi;</li> <li>- “Chuqur o'rganuvchi” algoritmi asosida kuchli yog'inlarni prognozlash dasturiy mahsuloti yaratiladi.</li> </ul> <p><b>Natijalarni sinovdan o'tkazish:</b> Tadqiqot natijalari Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligida sinovlardan o'tkaziladi.</p> <p><b>Ilmiy natijalarni chop etish:</b> Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi.</p>
<b>Jami yillik: bazaviy hisoblash miqdorining 3000 barobari</b>		

*\*Amaliy loyihaning umumiy moliyalashtirish hajmi bazaviy hisoblash miqdorining 6000 barobaridan oshmasligi va bajarish muddati ikki yilga mo'ljallangan bo'lishi shart*